

ODIL YOQUBOV HIKOYALARINING O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI O'RNI

Urganch davlat universiteti o'zbek adabiyoti 1-bosqich magistranti

Bazarbayeva Jamila

Kalit so'zlar: hikoya, qahramon, xarakter, detal.

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darsligida berilgan Odil Yoqubov hikoyalari tahlil qilinadi.

Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq soddalik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unga badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador birliklar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlashtirish, yig'latish, kuldirish, hayotot olamiga yetaklash, o'yga cho'mirish estetik tafakkurini shakllantirish voqea-hodisalarga teran boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi. Asarni tahlil qilishning metodik shartlaridan biri asar mazmunini uning tasviriy-ifodaviy vositalari bilan bog'liq holda qarashdir. Yana bir asosiy qoida asar ustida ishlash jarayonida ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni umumiy ravishda amalga oshirish hisoblanadi. Bu qoidalar asar ustidaishlashning asosiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o'quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning xarakterini aniqlab olishga yordam beradi. Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir. Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni

qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi. 6-sinf adabiyot darsligida Odil Yoqubovning “Yaxshilik” va “Muzqaymoq” hikoyalari berilgan. Bu hikoyani darslar davomida mutolaa qilish orqali o‘quvchilarning ma’naviy olami boyishi, yangi bilimlarga ega bo‘lishi bilan birga qahramonlar hayotini o‘ylashga urinishadi. Qahramonlarining ruhiy kechinmalarini anglash, davr muammolarini badiiy asar misolida o‘rganishda yozuvchi hikoyalari muhim ahamiyat kasb etadi. “Yaxshilik” hikoyasi qahramonlari bo‘lgan bola xarakterida topqirlik, chaqqonlik, oilasi uchun yaqin qarindoshlari uchun kuyunchaklikning ko‘rsatib berilganligi o‘quvchilarni o‘zi bilan tengdosh yigitning qanday hayotda yashayotganligini, qanday mehnat qilayotganligi ko‘rib ibrat namuna olish mumkin. Hikoyalar misolida ham o‘quvchilar ibrat-namuna olib, o‘z hayotlarini yaxshilashga, xatolarni qilmaslikka harakat qilishadi. Asarni mutolaa qilib tugatib o‘quvchilar fikri so‘ralganda o‘quvchilar hikoya qahramoni haqida munosabat bildirishi orqali adabiyotning inson qalbiga ta’siri masalalarini ko‘ramiz. O‘quvchilar bilan hikoyani tahlil qilishda jadval orqali tahlil qilish mumkin. Tahlil jarayonida “Yaxshilik” va “Muzqaymoq” hikoyalaridan foydalanamiz. 1-guruh “Yaxshilik” hikoyasi

	“Yaxshilik”	“Muzqaymoq”
Asar qahramonlari		
Asar yoritilgan davr		
Asarda ilgari surilgan g‘oya		
Asarda qo‘llangan detallar		
Asarda qahramonlar taqdirini yoritilishi		
Qahramonlarning hayot tarsi		
Qahramonlar hayotining qanday yakun topishi		

Asarda bolalar xarakterining ifodalanishi		
---	--	--

Bu kabi taqqoslab o'rganish o'quvchilarni yanada topqir bo'lishga undaydi. O'quvchilar badiiy asar o'qish jarayonida barcha detallarga ahamiyat berisha intilishadi va asarni qunt bilan o'qib o'rganadi. Adabiy ta'lim har bir o'quvchidan o'zgacha badiiy idrokni, asrni his etishni, kashf qilishni va yagona xulosaga emas, turfa yechimlarga, xulosalarga kelishi tabiiy hol sifatida baholaydi, to'g'ri deb biladi. O'quvchilar bitta asarni o'qib o'rganishsa-da, undan turlicha hissiy ta'sirga, quvvatga ega bo'ladilar, rango-rang xulosalar yasaydilar. O'quvchilarning badiiy tafakkurini o'stirishda; badiiy asarlar, ayniqsa, hikoya janrining imkoniyatlarini to'liq ochib berilishida; so'z sehri, qudratini teran his qilinishida; hayotning asl suratini – badiiy talqinini o'qib, zaruririy xulosalar hosil qilinishida; o'tmish bilan bugun o'rtasidagi taraqqiyot darajasini muqoyasa qilinishida; fikrni ifodalashning sodda, siqiq shakllarini o'rganib, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirilishida; o'quvchining olam haqidagi, odam haqidagi bilimlarini boyitishda, shubhasiz, Odil Yoqubov asarlarining ham alohida o'rni, mavqei bor.

Foydalanganilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-son qarori.
2. Adabiyot 6-sinf darsligi, Z.Mirzayeva, K.Jalilov. Respublika ta'lim nazariyasi. Toshken-2022